



«TASDIQLAYMAN»
Toshkent shahar statistika
boshqarmasi boshlig'ining
birinchi o'rinbosari
Sh.Umidov
17 " noyabr 2021- yil

**Toshkent shahar statistika boshqarmasida
korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusida
bo'lib o'tgan seminar yig'ilishi**

BAYONI №4/1

2021- yil 17- noyabr

Toshkent sh.

- Seminar raisi:** Sh.Umidov – boshqarma boshlig'ining birinchi o'rinbosari
- Qatnashganlar:** I. Shermatov – Boshqarma boshlig'i o'rinbosari,
Boshqarmaning korrupsiyaga qarshi kurashish idoraviy komissiyasi a'zolari, tarmoq bo'limlari va tuman statistika bo'lim boshliqlari

KUN TARTIBI:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-oktabrdagi "Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi PQ-5263-son qarori mazmun mohiyati to'g'risida.

*(Sh.Umidov, I.Shermatov, Sh.Shaagzamova, Sh.Karimova,
M.Usmonov, B.Shakarov, Sh.Umidov)*

Yig'ilishida boshqarma boshlig'ining birinchi o'rinbosari Sh.Umidov so'zga chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi PQ-5263-son qarori mazmun mohiyati to'g'risida boshqarma va tuman statistika bo'limlari xodimlariga qisqacha tushunchalar berib o'tildi.

Shunigngdek, Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini kompleks takomillashtirish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etish sabab va omillarini aniqlash hamda bartaraf etish, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga, unga qarshi kurashishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, huquqni qo'llash amaliyoti qonunchilik hujjatlarida korrupsiyaga sharoit yaratuvchi normalarni aniqlash va bartaraf etish

tizimining sifati va samaradorligini oshirish choralari ko'rish maqsadida qurilish, sog'liqni saqlash, oliy ta'lim va davlat xaridlari sohalaridagi normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish natijasida aniqlangan korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish bo'yicha «yo'l xaritasi» tasdiqlanganligi ta'kidlandi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi, Adliya vazirligi va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining normativ-huquqiy hujjatlarni «korrupsiyadan xoli qonunchilik» tamoyili asosida ishlab chiqish hamda quyidagilarni nazarda tutuvchi korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish tartibini joriy etish to'g'risidagi taklifi ma'qullandi, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni bosqichma-bosqich to'liq korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish, normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazishga jamoatchilik, ilmiy tashkilotlar va mustaqil ekspertlarni keng jalb qili, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda ishlab chiquvchi tomonidan korrupsiyaviy omillarni aniqlash bo'yicha namunaviy shakldagi savolnoma to'ldirilishi va loyiha qabul qilinguniga qadar bo'lgan barcha bosqichlarda unga ilova qilinishi, savolnoma to'ldirilmagan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari adliya organlari tomonidan huquqiy ekspertizadan o'tkazilmasligi va ishlab chiquvchiga qaytarilishi, normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarida adliya organlari tomonidan aniqlangan korrupsiyaviy omillar tegishli davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini baholashning asosiy mezonlaridan biri etib belgilandi.

2022—2026 yillarda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish reja-grafigi, 2021-yilda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish rejasi tasdiqlanganligi qayd etildi.

2022 yildan boshlab har yili 20 yanvarga qadar amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish rejasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tasdiqlanadi.

Bunda, ushbu rejaga korrupsiya darajasi nisbatan yuqori bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi, shu jumladan jamoatchilik o'rtasida keng muhokamaga sabab bo'lgan qonunchilik hujjatlari birinchi navbatda kiritiladi.

Shuningdek, 2022 yil 1 yanvardan boshlab ilmiy tashkilotlar va oliy ta'lim muassasalari vakillari hamda jismoniy shaxslar — mustaqil ekspertlarga normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ilmiy va mustaqil ekspertizadan o'tkazish huquqi berildi, unga muvofiq:

normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ilmiy hamda mustaqil ekspertizadan o'tkazish Qonunchilik hujjatlari va

ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish bo'yicha ekspertlar reyestriga (keyingi o'rinlarda — Ekspertlar reyestri) kiritilgan jismoniy shaxslar tomonidan, ularning o'z mablag'lari va (yoki) buyurtmachilar mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi;

Ekspertlar reyestri Adliya vazirligi tomonidan yuritiladi;

normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ilmiy va mustaqil ekspertizadan o'tkazish natijalari bo'yicha tuzilgan xulosalar tegishli davlat organlari va tashkilotlari tomonidan majburiy ko'rib chiqiladi hamda ularni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha tuzilgan ma'lumotnoma ekspertiza o'tkazgan shaxslar va Adliya vazirligiga yuboriladi. Adliya vazirligi uch oy muddatda Ekspertlar reyestrini shakllantirish va yuritish, korrupsiyaga qarshi ilmiy va mustaqil ekspertizani amalga oshiradigan shaxslarga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqadi va belgilangan tartibda tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, 2022 — 2026 yillarda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish reja-grafigiga (keyingi o'rinlarda — Reja-grafik) asosan ishlarni tashkil etishda davlat organlari va tashkilotlari amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazadi, natijalari bo'yicha to'ldirilgan cheklist hamda aniqlangan korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish yuzasidan takliflarni Adliya vazirligiga kiritadi, Adliya davlat organlari va tashkilotlari tomonidan korrupsiyaga qarshi ekspertiza o'tkazish natijalari bo'yicha taqdim etilgan cheklist va takliflarni umumlashtiradi hamda aniqlangan korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish bo'yicha «Yo'l xaritasi»ni ishlab chiqadi, qoida tariqasida, har yarim yilda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish holatini tahlil qilish natijalari bo'yicha tahliliy ma'lumotni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasiga kiritadi, Vazirlar Mahkamasi har yili 20 yanvarga qadar Reja-grafikda belgilangan sohalar doirasida amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish rejasi va korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish bo'yicha «Yo'l xaritasi»ni tasdiqlaydi. Reja-grafikda belgilangan sohalar doirasida amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni taalluqliligi bo'yicha tegishli davlat organlari va tashkilotlari korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazadi, reja-grafikda belgilangan sohalar doirasida amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish ishlarining sifatli va to'liq bajarilishini ta'minlash maqsadida Adliya vazirligi tomonidan davlat organlari va tashkilotlari xodimlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ilmiy doiralar va mustaqil ekspertlardan iborat Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish bo'yicha maxsus ishchi guruh (keyingi o'rinlarda — Maxsus ishchi guruh) tashkil etilishi mumkin.

Maxsus ishchi guruh a'zolari, shu jumladan davlat organlari va tashkilotlari, ilmiy tashkilotlar va oliy ta'lim muassasalari xodimlari asosiy ish joyidan ajralmagan holda jalb qilinadi hamda ularning mehnatiga haq to'lash Adliya vazirligi bilan tuzilgan fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida amalga oshiriladi, xalqaro moliya institutlari hamda xorijiy donorlarning texnik ko'mak mablag'lari va grantlari, shuningdek, davlat organlari va tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari Maxsus ishchi guruh faoliyatini moliyalashtirish, shu jumladan Maxsus ishchi guruh a'zolari mehnatiga haq to'lash va ular ishini samarali tashkil qilish uchun zarur bo'lgan kompyuterlar va kanselyariya buyumlari bilan ta'minlash manbalari hisoblanadi, davlat organlari va tashkilotlari Reja-grafikda belgilangan sohalar doirasida amaldagi qonunchilik hujjatlarini Maxsus ishchi guruh tomonidan korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazilishi uchun Adliya vazirligiga buyurtma berishi mumkin. Bunda ekspertiza o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar shartnoma asosida davlat organlari va tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan qoplanishi ta'kidlandi.

Boshqarmaning tarmoq va tuman statistika bo'limlari rahbarlari, xodimlari qonun hujjatlariga rioya etishi, o'z mansab yoki xizmat majburiyatlarini beg'arazlik bilan, xolisona, vijdonan, odob-axloq qoidalariga rioya etgan holda bajarishi hamda korrupsiyaga oid biror-bir huquqbuzarlikni sodir etishdan yoki bunday huquqbuzarliklarni sodir etish uchun shart-sharoitlar yaratadigan boshqa har qanday harakatlardan o'zini tiyishi shartligi yuzasidan ogohlantirildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi PQ-5263-son qarori ijrosini ta'minlash yuzasidan boshqarma hamda tuman statistika bo'limlari majburiyatlari to'g'risida batafsil ma'lumotlar berildi. Ushbu chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalarni o'z vaqtida bajarish yuzasidan boshqarmaning tarmoq va tuman statistika bo'limlariga tegishli topshiriqlar berilganligi qayd etildi.

Shuningdek, boshqarmaning rasmiy veb-sayti www.toshstat.uz da ko'rsatiladigan interaktiv davlat xizmatlari miqdori yildan-yilga ortib borayotgani hamda boshqarmaning rasmiy veb-saytiga Toshkent shahri bo'yicha oylik, choraklik va yillik tahliliy statistik ochiq ma'lumotlar joylashtirib borilishi ta'kidlab o'tildi.

Bundan tashqari, joylarda tashkil qilinayotgan profilaktika ishlarini tashkil qilishda yuqoridagi chora-tadbirlar rejasida berilgan topshiriqlarni qat'iy amalga oshirishlari, tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari va Hukumat qarorlari, statistika sohasiga oid qonunchilik va me'yoriy-huquqiy

hujjatlar talablarini yangi tashkil topgan hamda faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik sub'ektlariga tushuntirish ishlarini kuchaytirish, bunda joylardagi seminar uchrashuvlar va "Ochiq eshiklar kuni"da tadbirkorlik sub'ektlariga davlat statistika hisobotlarini internet tizimi orqali elektron shaklda qabul qilish tizimining qulayliklari va afzalliklari, jumladan hisobotlarni qat'iy ravishda belgilangan muddatlarda elektron shaklda taqdim etishlari lozimligi to'g'risida doimiy ravishda tushuntirishlar berib borishlari yuzasidan topshiriqlar berib o'tildi.

Shu bilan birga, boshqarma hamda tuman statistika bo'limlari xodimlarining odob-axloq qoidalariga amal qilishlari to'g'risida to'xtalib o'tildi.

Kun tartibidagi masalalar va ular to'g'risidagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib yig'ilish

Q A R O R Q I L A D I :

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi PQ-5263-son qarori ijrosi o'z vaqtida ta'minlansin.

2. Boshqarmaning korrupsiyaga qarshi idoraviy komissiyasi a'zolari, tarmoq va tuman statistika bo'limlari boshliqlariga:

-Toshkent shahar statistika boshqarmasi va tuman statistika bo'limlarida 2021-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy kompleks chora-tadbirlar rejasi bandlarida berilgan barcha topshiriqlar so'zsiz bajarilishi ta'minlansin amalga oshirilgan ishlar bo'yicha ma'lumotlar kiritilsin;

- korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsiya holatlarining oldini olish yuzasidan qabul qilingan qonun hujjatlari hamda Davlat statistika qo'mitasi tomonidan bu borada belgilangan vazifalar va chora-tadbirlar ijrosini to'liq ta'minlash yuzasidan barcha zarur choralarni ko'rgan holda, mansab vakolatlarini suiste'mol qilib, korrupsiya holatlariga yo'l qo'ygan rahbar va xodimlarga nisbatan qat'iy jazo choralarni ko'rilishi to'g'risida ogohlantirilsin;

- boshqarma va tuman statistika bo'limlarida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan "Odob-axloq qoidalari"ga amal qilgan holda o'z xizmat vazifalarini vijdonan va samarali bajarishlari yuzasidan mas'uliyatlarini yanada oshirsinlar.

- jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari hamda axborotdan foydalanuvchilarning so'rovlarini qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablar asosida ko'rib chiqilishini, murojaatlarning tahlil etilishi va bu borada faoliyat natijalarini muhokama etib borilishini ta'minlab, ushbu masalalarga mas'ul rahbar va xodimlar faoliyati yuzasidan nazoratni yanada kuchaytirsinlar;

- boshqarma va tuman statistika bo'limlarida tadbirkorlik sub'ektlari bilan targ'ibot-tashviqot ishlarini keng qamrovda va tizimli asosda tashkil etilishini

ta'minlab, bunda asosiy e'tiborni tadbirkorlik sub'ektlari uchun yaratilgan qulayliklar, ularning huquqlari va majburiyatlari, hisobot taqdim etish tartiblari va muddatlari to'g'risida tushuntirish ishlarini olib borilishiga, huquqbuzarliklarning barvaqt oldi olinishiga va ularning profilaktikasi samaradorligini oshirishga qaratsinlar hamda bu borada sustkashlikka yo'l qo'ygan rahbarlar va xodimlarga nisbatan qat'iy intizomiy jazo choralarini ko'rilishi yuzasidan ogohlantirilsin;

- davlat statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzgan huquqbuzarlarga nisbatan ma'muriy ishlarni yuritishda amaldagi qonun hujjatlariga to'liq rioya etilishini ta'minlab, bu borada asosiy e'tiborni Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 215-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlikni birinchi marta sodir etgan tadbirkorlik sub'ektlarining mansabdor shaxslariga nisbatan ma'muriy amaliyotni qo'llashni O'zbekiston Respublikasining 2016- yil 29 -dekabrdagi O'RBQ-418-son qonuni talablari asosida yuritilishiga qaratsinlar;

- boshqarmaning rasmiy veb-saytining uzluksiz faoliyatini ta'minlash va takomillashtirib borish hamda ulardagi ma'lumotlarni muntazam yangilab va to'ldirib borilishini ta'minlash, shuningdek Davlat statistika organlari faoliyatini ochiqligini yoritib beruvchi ma'lumotlarni keng jamoatchilikka yetkazish, shu bilan birga Davlat statistika qo'mitasi va boshqarma tomonidan berilgan topshiriqlarning tizim organlarida ijro etilishi holatini muntazam ravishda o'rganilsin;

- 3. Boshqarmaning bosh yuriskonsulti (M.Usmonov)ga:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Hukumat farmon va qarorlari, Davlat statistika qo'mitasi qaror va buyruqlari, shahar hokimligining qaror va farmoyishlarini har biri bo'yicha alohida yozma ma'lumotlar tayyorlash va boshqarma hamda tuman statistika bo'limlarining barcha xodimlarini doimiy tanishtirilishi ta'minlansin;

Har chorak yakuni bo'yicha boshqarma va tuman statistika bo'limlari tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga nisbatan qo'llanilgan ma'muriy jarimalarni O'zbekiston Respublikasi MJTK talablari asosida to'g'ri qo'llanilganligi yuzasidan o'z tavsiyalari berib borilsin.

4. Ushbu seminar qarorlari ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Yig'ilish kotibi



Sh.Shaagzamova